

TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA KAPITAL YETARLILIGINI TA'MINLASHDA XALQARO TAJRIBALAR

Abduraxmonov Akmal

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0007-2966-570X

akmalabdurahmonov1991@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada JPMorgan Chase va Wells Fargo kabi yirik xorijiy tijorat banklari misolida resurs bazasi tarkibi hamda kapital yetarliligini ta'minlash mexanizmlari o'rganilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, banklarning asosiy resurs manbai sifatida depozitlar salmog'i yuqori bo'lib, uzoq muddatli qarz majburiyatlari va aksiyadorlik kapitali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Bazel qo'mitasining kapital yetarliligi bo'yicha belgilangan me'yorlari tijorat banklari uchun muhim standart bo'lib, ularning risklarni qoplash qobiliyatini oshiradi. Olingan xulosalar O'zbekiston bank tizimi uchun resurs bazasini diversifikatsiya qilish, kapitalni optimallashtirish va likvidlikni boshqarish bo'yicha amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, resurs bazasi, kapital yetarliligi, depozitlar, uzoq muddatli qarzlilar, Bazel qo'mitasi, moliyaviy barqarorlik.

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ДИВЕРСИФИКАЦИИ РЕСУРСНОЙ БАЗЫ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ И ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДОСТАТОЧНОСТИ КАПИТАЛА

Абдурахмонов Акмал

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье изучаются структура ресурсной базы и механизмы обеспечения достаточности капитала на примере крупнейших международных коммерческих банков, таких как JPMorgan Chase и Wells Fargo. Анализ показывает, что основным источником ресурсов остаются депозиты, в то время как долгосрочные обязательства и акционерный капитал играют ключевую роль в укреплении финансовой устойчивости. Нормативы достаточности капитала Базельского комитета являются важным стандартом, повышающим способность банков покрывать риски. Полученные выводы имеют практическое значение для банковской системы Узбекистана в части диверсификации ресурсной базы, оптимизации структуры капитала и управления ликвидностью.

Ключевые слова: коммерческие банки, ресурсная база, достаточность капитала, депозиты, долгосрочные обязательства, Базельский комитет, финансовая устойчивость.

INTERNATIONAL EXPERIENCES IN DIVERSIFICATION THE RESOURCE BASE OF COMMERCIAL BANKS AND ENSURING CAPITAL ADEQUACY

Abdurakhmonov Akmal

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article examines the structure of resource bases and capital adequacy mechanisms in major international commercial banks, with a focus on JPMorgan Chase and Wells Fargo. The analysis reveals that deposits remain the primary source of funding, while long-term liabilities and shareholder equity play a crucial role in ensuring financial stability. The Basel Committee's capital adequacy standards serve as an essential benchmark, enhancing banks' capacity to absorb risks. The findings are of practical relevance for Uzbekistan's banking sector in terms of diversifying resource bases, optimizing capital structure, and strengthening liquidity management.*

Keywords: *commercial banks, resource base, capital adequacy, deposits, long-term liabilities, Basel Committee, financial stability.*

Kirish.

Jahon moliya bozorida tijorat banklarining barqaror rivojlanishi ularning resurs bazasi hajmi va tarkibiga bevosita bog'liq. Banklarning resurs bazasi nafaqat moliyaviy vositachilik faoliyatini samarali olib borish imkonini beradi, balki kapital yetarliligi orqali ularning risklarga bardoshlilikini ham belgilab beradi. Shu nuqtai nazardan, bank resurslarini diversifikatsiya qilish, kapital tuzilmasini optimallashtirish hamda xalqaro moliyaviy standartlarga moslashtirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Xalqaro tajribadan ko'rinib turibdiki, JPMorgan Chase va Wells Fargo kabi yirik banklar o'z resurs bazalarida depozitlarning yuqori salmog'ini saqlab qolish bilan birga, uzoq muddatli qarz majburiyatlari va aktsiyadorlik kapitalini ham moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda faol qo'llamoqda. Shu bilan birga, Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan kapital yetarliligi me'yorlari global bank tizimida moliyaviy xavfsizlik kafolati sifatida e'tirof etilgan.

O'zbekiston bank tizimida ham oxirgi yillarda resurs bazasini mustahkamlash, depozit siyosatini takomillashtirish, kapitalni kengaytirish va xalqaro moliyaviy me'yorlarga moslashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq, mavjud sharoitda bank resurslarini samarali boshqarish, kapital yetarliligini ta'minlash hamda likvidlikni nazorat qilishning samarali mexanizmlarini shakllantirish zaruriyati yanada kuchaymoqda.

Shu bois, ushbu tadqiqotda xorijiy tijorat banklarining resurs bazasi tarkibi va kapital yetarliligi tajribasi tahlil qilinib, ularning O'zbekiston bank tizimi uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan jihatlari yoritiladi.

Adabiyot sharhi.

Tijorat banklari resurs bazasi va kapital yetarliligi masalalari bo'yicha xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarda keng qamrovli tadqiqotlar mavjud. Olimlar bu borada banklarning moliyaviy barqarorligi, risklarni boshqarish, depozit siyosati hamda kapital tuzilmasini optimallashtirishni markaziy o'ringa qo'yganlar.

Diamond va Dybvig (1983) o'zlarining klassik tadqiqotida banklarning asosiy vazifasi moliyaviy vositachilik ekanini ta'kidlab, depozitlar barqarorligini saqlash va bank likvidligini ta'minlash orqali moliyaviy inqirozlarning oldini olish mumkinligini ko'rsatgan. Ularning modeli bugungi kunda ham banklarning resurs bazasini boshqarish bo'yicha nazariy asos sifatida qo'llanmoqda.

Basel Committee on Banking Supervision (2011) tomonidan ishlab chiqilgan "Basel III" standartlari bank kapitalining yetarliligini oshirish va likvidlik risklarini kamaytirishga qaratilgan. Ushbu hujjat banklarning aktsiyadorlik kapitali va uzoq muddatli resurslariga

qo'yiladigan talablarni aniq belgilab berdi, bu esa global moliya tizimida barqarorlikni kuchaytirishda muhim omil bo'ldi.

Levine (2005) o'z tadqiqotida bank kapitalining iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilib, resurs bazasi diversifikatsiyasi moliyaviy bozorlar samaradorligini oshirishini ta'kidlagan[3]. Uning fikricha, bank kapitali nafaqat bank ichki barqarorligini, balki iqtisodiy tizimda investitsion jarayonlarning faollashuvini ham ta'minlaydi.

Stiglitz va Weiss (1981) kredit bozoridagi axborot assimetriyasi nazariyasi orqali bank resurs bazasining sifati va risklarni boshqarish darajasini izohlab berdi[4]. Ularning yondashuviga ko'ra, kapital yetarliligi past bo'lgan banklar kredit risklariga ko'proq duchor bo'ladi, bu esa moliyaviy beqarorlikka olib kelishi mumkin.

O'zbekistonlik iqtisodiyot fanlari doktori Holov N. (2024) esa tijorat banklari barqarorligini mustahkamlash metodologiyasi bo'yicha olib borgan tadqiqotida kapital yetarliligi milliy iqtisodiyotdagi investitsion faollikni oshirish bilan bevosita bog'lagan[5]. Uning fikricha, kapital zaxiralari kuchli bo'lgan banklar moliyaviy bozorlar o'zgarishlariga tezroq moslasha oladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda tijorat banklari resurs bazasi va kapital yetarliligi ta'minlash masalalari xalqaro tajriba hamda O'zbekiston bank tizimi sharoitida qiyosiy tahlil asosida o'rganildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Banklar resurs bazasi hajmining o'sishi mamlakat bank tizimining mustahkamlanishiga yordam beradi. Shuni inobatga olgan holda, AQSh bank tizimi uchun yirik tijorat banklardan biri bo'lgan JPMorgan Chase bankining resurs bazasi tarkibini o'rganib chiqamiz.

2000-yilda JPMorgan & Co va Chase Manhattan Bank banklari qo'shiluvidan hosil bo'lgan bu ulkan moliyaviy tashkilot nafaqat AQShda, balki dunyoning turli nuqtalarida o'z xizmatlarini ko'rsatadi. "Bu yirik JPMorgan Chase banki 2,623 trln dollar aktivga ega va uning hozirdagi bozor qiymati 390 mlrd dollarni tashkil qiladi" (Farmon, 2020). Bu bankning hozirgi kunda butun dunyoda o'zing filiallari mavjud bo'lib, o'zining mijozlariga sifatli va o'z vaqtida xizmat ko'rsatib kelmoqda.

1-jadval


JPMorgan Chase banki resurs bazasi tarkibi (Farmon, 2020) (foizda)

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Depozitlar	53,0	54,4	55,2	57,0	56,1
Federal Rezerv oldidagi majburiyatlar	7,5	6,5	6,7	6,3	7,0
Qarz majburiyatli qimmatli qog'ozlar	2,6	0,7	0,5	2,0	2,6
Boshqa jalb qilingan mablag'lar	1,2	0,9	0,9	0,0	0,0
Savdo majburiyatlari: qarz va sarmoya vositalari	5,9	5,4	5,5	4,9	5,5
Hosilaviy qimmatli qog'ozlar ostidagi majburiyatlar	8,0	7,6	7,6	7,5	7,5
Boshqa qarz va majburiyatlari	2,0	1,8	1,6	1,0	0,8
Uzoq muddatli qarz majburiyati	10,7	12,3	11,9	11,2	10,8
Bank kapitali	9,0	10,5	10,2	10,1	9,8
Jami resurs bazasi	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, JPMorgan Chase banki resurs bazasi tarkibida asosiy salmoqni bankning depozitlari tashkil etgan. 2024-yil boshiga depozitlar 2021-yil boshiga nisbatan 3,1 foizga o'sgan, shuningdek uning salmog'i 2020-yilda jami resurs bazasining 53 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 56,1 foizni tashkil qilgan. Keyingi

o'rinda uzoq muddatli majburiyatlar 10,8 foiz salmoq bilan resurs bazasi tarkibida asosiy o'rinni egallab turibdi. Bundan tashqari, bankning kapitalining salmog'i ham 2020-yilga nisbatan 0,8 foizga oshib, 2024-yilga kelib 9,8 foizni tashkil qilgan. Bundan ko'rinadiki, JPMorgan Chase banki uzoq muddatli investitsion operatsiyalar uchun resurs manbasini yaratishga alohida e'tibor qaratadi.

JPMorgan Chase banki depozitlar tarkibini tahlilidan ko'rish mumkinki, jami depozitlar tarkibida barqaror depozitlar salmog'i yuqori. Ammo, oxirgi yillarga kelib ushbu ko'rsatkich tushib borayotganini kuzatish mumkin. Shuningdek, depozitlar tarkibida muddatli depozitlarning salmog'ida ham pasayish tendentsiyasi yuz bergan, bu esa, o'z navbatida, resurslarni omonatlar jalb qilish orqali jamlashga qaratilmayotganligidan dalolat beradi.



1-rasm. JPMorgan Chase & Co banki depozitlari tarkibi (foizda)
(JPMorgan Chase & Co. 2024)

1-rasmdan ko'rinadiki, JPMorgan Chase & Co banki depozitlari tarkibida muddatli depozitlar 2021-yil boshida jami depozitlarning 7,6 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich bor yo'g'i 2,8 foizni tashkil qilgan va qariyb 2 barobarga kam bo'lgan. Aksincha, jamg'arma depozitlari 2021-yil boshida 51,7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yil boshiga kelib 52,3 foizni tashkil qilgan. Bu esa, o'z navbatida, jamg'arma depozitlarni jalb qilishga e'tibor qaratilganini ko'rsatmoqda. Shuningdek, depozit bazasi etariligi 5 yil davomida o'rtacha 58 foizni tashkil etgan.

Tahlilimiz davomida yana, AQShning eng yirik tijorat banklaridan biri bo'lgan Wells Fargo bankining resurs bazasi tarkibini mustahkamlash amaliyotini o'rganib tegishli xulosalarni shakllantiramiz. Wells Fargo banki 1852-yilda tashkil etilgan, qarorgohi San-Frantsiskoda joylashgan, 2024-yil yakuniga ko'ra 1,9 trln. AQSh dollari aktiviga ega hamda bank, investitsiya va ipoteka bilan bog'liq barcha xizmatlarni taqdim etuvchi yirik moliya-kredit muassasasi hisoblanadi. Shuningdek, bankning 37 ta davlatlarda o'z filialiga ega, 259 mingdan ortiq bank xodimlariga va 2024-yil 31-dekabr holatiga AQShda bank aktivlari yirikligi bo'yicha to'rtinchi o'rinda, bank oddiy aktsiyalari ichida bozor bahosi bo'yicha uchinchi o'rinni egallagan.

Wells Fargo bankining resurs bazasi tarkibi (foizda)
(Wells Fargo & Company, 2024)

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2021	2022	2023	2024	2025
Depozitlar	68,5	67,6	67,7	68,4	67,8
Qisqa muddatli qarzlar	3,8	5,5	5,0	5,3	5,6
Derivativlar	0,7	0,8	0,8	0,5	0,4
Uzoq muddatli qarzlar	10,9	11,2	13,1	11,5	12,1
Boshqa majburiyatlar	5,1	4,1	3,0	3,6	3,7
Bank kapitali	11,0	10,8	10,4	10,7	10,4
Jami resurs bazasi	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

2-jadval ma'lumotlarida Wells Fargo banki jami resurs bazasi tarkibi 2021-2025-yillar boshidagi dinamikasi keltirilgan bo'lib, unda depozitlar salmog'i ancha yuqori bo'lib, 2024-yil yakunida 68,4 foizni takshil etganligi ko'rinadi, bu esa mazkur tijorat bank resurs bazasi sifatida depozitlardan keng foydalanishi aniqlanadi. Shu bilan birga bankning so'nggi yillarda qisqa muddatli va uzoq muddatli qarzlar miqdori oshib borayotganligi kuzatiladi. Bu esa bankning depozitlarga qaraganda muddatli majburiyatlari oshib borayotganligidan dalolat beradi, bu esa tijorat banklari likvidligini boshqarish nuqtai nazaridan va banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ijobiy holat hisoblanadi.

Bank aktsiyadorlik kapitali bankning moliyaviy mustahkamligi va barqarorligini belgilovchi eng muhim tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi. Bank kapitalining hajmi bankning to'lov qobiliyatiga, aktivlar sifatiga va risklarga chidamliligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, global moliyaviy bozorda banklarning ishonchliligi ularning kapital yetarliligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu jihat bank sektorini tartibga soluvchi xalqaro tashkilotlar, jumladan, Bazel qo'mitasi tomonidan ham e'tirof etilgan.

Bazel qo'mitasi tavsiyalariga ko'ra, tijorat banklarining aktsiyadorlik kapitalining bank aktivlariga nisbati kamida 10 foiz bo'lishi talab etiladi. Ushbu me'yor banklarning moliyaviy xavflarni qoplash qobiliyatini oshirishga, aktivlarning sifati va likvidligini ta'minlashga xizmat qiladi. Agar bankning aktsiyadorlik kapitali yetarli darajada shakllangan bo'lsa, u iqtisodiy tebranishlarga bardosh bera oladi va noxush holatlardan zarar ko'rmasdan chiqib ketish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bank kapitalining yetarliligi nafaqat bankning ichki moliyaviy salohiyatini belgilaydi, balki uning bozor ishtirokchilari, jumladan, mijozlar, investorlar va tartibga soluvchi organlar oldidagi ishonchliligini ham oshiradi. Kapital yetarliligini ta'minlash uchun banklar o'z aktivlarini diversifikatsiya qilishi, risklarni minimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqishi va kapital zaxiralarini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim.

Shuningdek, kapital yetarliligi yuqori bo'lgan banklar yirik kredit operatsiyalarini amalga oshirishda, korporativ mijozlar bilan hamkorlik qilishda va investitsion loyihalarni moliyalashtirishda ustunlikka ega bo'ladi. Shu sababli, banklar o'z kapital tuzilmasini optimallashtirish, qo'shimcha aktsiyalar chiqarish yoki ichki daromadlarni reinvestitsiya qilish orqali kapital zaxiralarini kengaytirish strategiyasiga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot davomida JPMorgan Chase va Wells Fargo kabi yirik tijorat banklari resurs bazasi tarkibi va kapital yetarliligi mexanizmlari o'rganildi. Tahlil natijalaridan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelindi:

Resurs bazasida depozitlarning salmog'i yuqori bo'lishi banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlasa-da, ularning diversifikatsiya darajasini kengaytirish zarur.

Uzoq muddatli qarz majburiyatlari bankning investitsion faoliyatida muhim moliyaviy

manba sifatida shakllanib, kapital yetarliligi bilan bir qatorda risklarni qoplash imkoniyatini kuchaytiradi.

Aktsiyadorlik kapitali banklarning to'lov qobiliyati, aktivlar sifati va barqarorligi darajasini belgilovchi eng asosiy omillardan biri bo'lib, Bazel qo'mitasi standartlariga ko'ra kamida 10 foiz miqdorda shakllanishi lozim.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kapital zaxiralari kuchli banklar moliyaviy tebranishlarga bardosh bera oladi va yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirishda ustunlikka ega bo'ladi.

O'zbekiston tijorat banklari uchun resurs bazasini diversifikatsiya qilish, kapitalni optimallashtirish hamda xalqaro moliyaviy standartlarga mos mexanizmlarni joriy etish zaruriyati mavjud.

Adabiyotlar/Адабиятлар/Reference:

Basel Committee on Banking Supervision. (2011). *Basel III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems*. Bank for International Settlements.

Diamond, D., & Dybvig, P. (1983). *Bank runs, deposit insurance, and liquidity*. *Journal of Political Economy*, 91(3), 401–419.

Farmon (2020) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni "2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"*.

Farmon (2021) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-sentyabrdagi PF-6307-son Farmoni "Soliq majburiyatlarini bajarishda tadbirkorlik sub'ektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish to'g'risida"*.

Holov, A. (2024). *Tijorat banklari barqarorligini mustahkamlash metodologiyasini takomillashtirish*. DSc dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent TDIU 16-b.

JPMorgan Chase & Co. (2024). *Annual Report*. New York.

Levine, R. (2005). *Finance and Growth: Theory and Evidence*. *Handbook of Economic Growth*, Vol. 1A.

Stiglitz, J., & Weiss, A. (1981). *Credit rationing in markets with imperfect information*. *American Economic Review*, 71(3), 393–410.

Wells Fargo & Company. (2024). *Annual Report*. San Francisco.